

QAMOQQA OLISH TARZIDAGI EHTIYOT CHORASI: QONUNCHILIK, AMALIYOT, MUAMMO VA YECHIM

Fayyoz Qambarova

Qashqadaryo viloyat sudi jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati sudyasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13364424>

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tom ma'nodagi demokratik islohotlarning mazmun-mohiyatiga aylangan insonning huquq va erkinliklarini himoya qilish davlat va jamiyat hayotining bosh maqsadi deb e'tirof etilayotgan bir sharoitda qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash, ya'ni ma'lum bir ma'noda fuqaroning erkinligini cheklash bilan bog'liq masalalar har qachongidan ko'ra ham huquqshunos tadqiqotchilar va ushbu soha mutaxassislarining diqqat-e'tiborini ko'proq tortmoqda. Buning bir nechta sabab va omillari bor:

birinchidan, bugungi kunda "adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish"[1], shuningdek "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da 14-maqсад sifatida belgilangan "qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniyligni ta'minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilash"[2] dolzarb masalaga aylangan bir paytda qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashga oid qonun talablari buzilmasligi kerak;

ikkinchidan, xalqaro huquqda shaxs daxlsizligining huquqiy kafolati, inson huquqlari himoya qilinishini ta'minlashning eng muhim omillaridan biri sifatida belgilangan;

uchinchidan, jinoyat ishi yurituvi jarayonida fuqaro tergov organlari tomonidan noqonuniy jinoiy ta'qib va g'ayriqonuniy xatti-harakatlarga uchrashining oldi olinadi.

O'zbekiston qonunchiligida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash tartibi belgilangan bo'lib, Konstitutsiyaning 27-moddasiga muvofiq, "qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko'ra yo'l qo'yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas." [3] Ushbu konstitutsiyaviy qoida jinoyat sodir qilishda ayblanayotgan gumonlanuvchi jinoyat ishi yurituvining dastlabki bosqichidayoq sudning himoyasida ekanligini kafolatlaydi. Va bu progressiv, insonparvar norma xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga ham to'la mos keladi.

Dunyoning juda ko'plab mamlakatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan va xalqaro qonunchilikda nihoyatda muhim hujjat sifatida e'tirof etiladigan "Fuqarolik va siyosiy huquqlar" to'g'risidagi xalqaro paktning 9-moddasida: "Hech kim o'zboshimchalik bilan hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas. Hech kim qonunda belgilanganidan boshqacha asos va tartibda ozodlikdan mahrum etilishi mumkin emas"ligi, "Jinoiy ayblov bo'yicha hibsga olingan yoki ushlab turilgan har bir shaxs zudlik bilan sudya yoki qonun bo'yicha sud hokimiyatini amalga oshirish huquqi bo'lgan boshqa mansabdor shaxs huzuriga keltiriladi va oqilona muddatda sud muhokamasi o'tkazilishi yoki ozod qilib yuborilishi huquqiga ega"ligi [4] singari muhim xalqaro normalar belgilangan.

Qamoqqa olishga sud organlari tomonidan ruxsat berilishi amaliyoti xalqaro qonunchilikda "Xabeas korpus" instituti deb yuritilib, (lot. habeas korpus, so'zma-so'z – "tanani sudga keltirish", ma'nosida – "ushlangan shaxsni sudga shaxsan keltiring") huquqshunos olimlar tomonidan shaxs erkinligi va daxlsizligini himoya qilishning eng muhim vositasi sifatida qaraladi.

“Ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish Jinoyat [kodeksida](#) uch yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyatlarga doir hamda ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, buning uchun Jinoyat kodeksida besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo‘yicha qo‘llaniladi”[5]. (JPK 242-modda)

Mamlakatimiz qonunchiligida ehtiyot choralarining turlari (munosib xulq-atvorda bo‘lish to‘g‘risida tilxat; shaxsiy kafillik, jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi; garov; uy qamog‘i; qamoqqa olish; voyaga yetmaganlarni kuzatuv ostiga olish uchun topshirish; harbiy xizmatchining xulq-atvori ustidan qo‘mondonlik kuzatuvi[5]) belgilangan bo‘lib, ular orasida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi eng jiddiy, og‘ir oqibatlarni keltirib chiqaradigan chora bo‘lib, insonning shaxsiy hayotiga bevosita ta‘sir ko‘rsatishi bilan xarakterlanadi. Tabiiyki, ushbu ehtiyot chorasi qo‘llangan shaxsning erkinligi sezilarli ravishda cheklanadi.

“Ehtiyot chorasi ayblanuvchi, sudlanuvchi surishtiruvdan, dastlabki tergovdan va suddan bo‘yin tovlashining oldini olish; uning bundan buyonggi jinoiy faoliyatining oldini olish; uning ish bo‘yicha haqiqatni aniqlashga halal beradigan urinishlariga yo‘l qo‘ymaslik; hukmning ijro etilishini ta‘minlash maqsadida qo‘llaniladi”[5]. (JPK 236-modda)

“Xabeas korpus” instituti mamlakatimizda 2008 yildan boshlab qo‘llanilib kelinmoqda. 2007 yil 11 iyuldagi “Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o‘tkazilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” O‘RQ-100-son qonuniga asosan, “Hech kim sud qaroriga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas”[6].

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot choralariga oid milliy qonunchilik hamda bu boradagi xalqaro hujjatlarda belgilangan umume‘tirof etilgan prinsip va normalar talablariga qat‘iy amal qilish, bir so‘z bilan aytganda ushbu ehtiyot chorasini qo‘llash masalalarida huquqshunos olimlar, ayniqsa ba‘zi bir amaliyotchilar, jumladan advokatlar tomonidan turli fikr-mulohazalar bildiriladi. Ayrim olimlar sudylar tomonidan prokurorning qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash haqidagi iltimosnomasini qanoatlantirish qonuniy tartibda amalga oshirilayotganligi to‘g‘risida ijobiy (mo‘tadil) fikrlarni bildirsa, ba‘zi bir huquqshunoslar olimlar sudlar prokurorning qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash haqidagi iltimosnomasini so‘zsiz, hech bir istisnosiz qanoatlantirib kelayotganligini ta‘kidlab, buni noto‘g‘ri deb hisoblaydi.

Yuridik fanlar doktori, professor, taniqli olima S.Rahmanova fikriga ko‘ra, “qamoq ehtiyot chorasining sudlar tomonidan qo‘llanilishi amaliyotidan misol keltirsak, 2022 yilda tergov organlaridan sudlarga kelib tushgan jami 24 ming 118 ta iltimosnomadan 23 ming 503 tasi qanoatlantirilgan, 485 tasi esa rad etilgan, ya‘ni 485 shaxsga nisbatan asossiz ravishda qamoq ehtiyot chorasi qo‘llanilishining oldi olingan”[7].

Huquqshunos olim F.Taxirov bu boradagi fikrini quyidagicha ifodalaydi: “Mamlakatimizda “Xabeas korpus” instituti 2008 yildan tatbiq etilgan bo‘lib, uning qo‘llash doirasi yillar davomida izchil kengayib bormoqda, tergov jarayoni ustidan sud nazorati qat‘iy ravishda kuchaytirilmoqda”[8].

Huquqshunos olim, advokat B.Salomovning bu masaladagi mulohazalari esa yuqoridagi olimlarimizning fikrlaridan keskin farq qiladi, ya‘ni olimimizning e‘tirof etishicha: “sud huzuriga keltirilgan shaxsning aybdor yoki aybsizligini emas, balki uni jamiyatdan ajratish yoxud ajratmagan holda dastlabki tergovni olib borish masalasi sud majlisida taraflar

(prokuror va advokat)ning tortishuvi asosida adolatli hal qilinishiga erishish maqsad qilingan edi.

Ammo bu boradagi sud amaliyoti tahlili ko'zlangan maqsad deyarli amalga oshmaganini ko'rsatmoqda. Sanksiya uchun sudga keltiriladigan 100 nafar shaxsdan 99 tasiga sud qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llayapti.

Prokurorning ayblanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi iltimosnomasi "shablon" tusini olib bo'lgan, hammasida mazmun bir xil: O'zR JPKning 236-moddasi ro'kach qilinib, "ayblanuvchining surishtiruvdan, tergovdan va suddan bo'yin tovlashiga, jinoiy faoliyatini davom ettirishiga va ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga xalal beradigan xatti-harakatlar qilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida" uni qamoqqa olish so'raladi. Sudyalar esa iltimosnomani qanoatlantirish barobarida, o'z ajrimlarida uni nuqta-verguligacha ko'chirishmoqda"[9].

Bu boradagi ko'plab ilmiy izlanishlar olib borgan huquqshunos olim D.Suyunovning mulohazalariga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan o'zgartishlarga muvofiq 2008 yildan boshlab sudlarga qamoqqa olish uchun sanksiya berish huquqi berildi, bu inson huquqlari himoya qilinishini ta'minlashning eng muhim omillaridan biri bo'ldi. Shu paytdan boshlab ushbu ehtiyot chorasini qo'llashning protsessual mexanizmi fuqarolar foydasiga tubdan o'zgardi, endi qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash uchun prokuror qonunda belgilangan muddatlarda sudga iltimosnoma bilan murojaat qilishi shart va sud o'z navbatida prokuror tomonidan kiritilgan iltimosnomani qanoatlantirish yoki rad etish masalasini hal qiladi"[10].

Huquqshunos olimlarning yuqorida keltirib o'tilgan fikr-mulohazalaridan anglashiladiki, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi prokuror iltimosnomasini sudyalar tomonidan adolatli va qonuniy qo'llanilishi borasida olimlar va amaliyotchilar orasida yakdil fikr shakllangani yo'q. Lekin, bu boradagi aytilgan har ikkala fikr-mulohazalarni inkor etib bo'lmaydi. Bu xilma-xil, bir-biridan keskin farq qiladigan, ayrim qarama-qarshi fikrlar shakllanishining ob'ektiv-sub'ektiv sabablari bor.

O'rni kelganda aytish kerakki, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi prokuror iltimosnomasi ko'rib chiqiladigan ba'zi bir sud protsesslarida ishtirok etadigan prokuratura organi vakili o'zining muzokara ma'ruzasida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llanilayotgan fuqaroga qo'yilayotgan jinoiy ayblov qay darajada og'irligi, jinoiy qilmishning ijtimoiy xavfi nechog'li ekanligi, ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchi tergov hamda sud organlaridan yashirinib jinoiy faoliyatini davom ettirishi mumkinligi, boshqa ehtiyot choralarini qo'llab bo'lmasligi xususida yetarli asosga ega bo'lmagan fikrlarini bildiradi va iltimosnomani qanoatlantirishni so'raydi.

Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 14-noyabrdagi 16-sonli "Sudga qadar ish yuritish bosqichida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasining sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida"gi Qarorning tegishli bandida: "Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi iltimosnoma qo'zg'atish to'g'risidagi qarorda, shaxs gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan jinoyat, qilmish kvalifikatsiyasi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchini qamoqqa olish zaruratini keltirib chiqargan asoslar, shuningdek shaxsga nisbatan boshqa turdagi ehtiyot chorasini qo'llash maqsadga muvofiq emasligi haqidagi xulosalar bayon etilishi lozim"[11].

Bizning fikrimizcha, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini sudylar tomonidan qo'llash samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagi masalalarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- dastlabki tergov va prokuratura organlarining qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash uchun sudga yuborilgan iltimosnomasida boshqa yengilroq ehtiyot chorasini qo'llash imkoni yo'qligini isbotlovchi yetarlicha asoslangan xulosalarini kiritishlari shartligini belgilash lozim. Buning uchun O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 236-moddasini quyidagi to'rtinchi xatboshi bilan to'ldirish taklif etiladi:

dastlabki tergov va prokuratura organlari qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash uchun sudga yuborilgan iltimosnomada qamoq ehtiyot chorasini qo'llash zarurligini isbotlovchi maqbul dalillarni keltirib o'tishi shart.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni., 28.01.2022 yil., <https://lex.uz/uz/docs/5841063>.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi., <https://www.lex.uz/acts/6445145#6445506>.
3. "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro pakt., Norasmiy tarjima., <https://lex.uz/docs/2640479>.
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi., <https://www.lex.uz/acts/111460>.
5. "Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o'tkazilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun., <https://lex.uz/docs/1322717>.
6. S.Rahmanova., "Miranda qoidasi" va "Xabeas korpus" instituti – huquqlarimizning muhim konstitutsiyaviy kafolati", 2023 yil 23 mart., <https://yuz.uz/news>.
7. F.Taxirov., "Xabeas korpus" institutining konstitutsiyaviy kafolati", International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS Volume.8, Issue 05, May (2024).
8. B.Salomov., "Qamoqdan boshqasi bekor(mi?)", <https://advokatnews.uz/xabar/1925.html>.
9. D.Suyunova., "Qamoqqa olish" ehtiyot chorasini qonunda tartibga solinmagan holatlardan kim jabr ko'ryapti?., <https://advokatnews.uz/xabar/1950.html>.
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 14-noyabrdagi 16-sonli "Sudga qadar ish yuritish bosqichida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasining sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida"gi qarori., <https://lex.uz/docs/1595235>.